

## Tuproq unumdorligi - dolzarb masala

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi xavfsizligini ta'minlash, tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 5-may kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Sardoba suv omborida yuz bergan favqulotda holat Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida qishloq xo'jaligiga ham jiddiy talofat yetkazganini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, Buxoro viloyatida sodir bo'lgan tabiiy ofat ham qishloq xo'jaligi ekinlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu kabi tabiiy ofatlar natijasida tuproq unumdorligi muammosi yanada dolzarb masalaga aylandi.



Hozirgi vaqtda dunyo aholisining o'sish surati oziq-ovqat ishlab chiqarish suratiga nisbatan ortishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun zarur bo'lgan energiya manbalari, chuchuk suv zahiralari, ekinga yaroqli yerlar kabi resurlarning keskin qisqarishi jahon miqyosida oziq-ovqat muammosini keskin kuchaytirgan bir holatda tuproq unumdorligini oshirish qishloq xo'jaligining asosiy muammolaridan biri

sifatida yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borilishini talab etmoqda.

Shu boisdan olimlarimiz bu yo'nalishlarda ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar. Xususan, Umumiy va noorganik kimyo instituti tomonidan "Tuproq unumdorligini oshiruvchi yangi turdagi mikroelementlar tutgan guminli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish" hamda "Mahalliy xom-ashyolar asosida organik va murakkab o'g'itlar olishning jadallashgan texnologiyasini ishlab chiqish va ularni Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv ombori toshqinidan zarar ko'rgan hududlar tuproq unumdorligini qayta tiklashda qo'llash", Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan "Tabiiy ofatdan zararlangan ekin maydonlariga takroriy ekin sifatida ertapishar, qurg'oqchilikka chidamli, tola chiqimi yuqori yangi "Afsona" g'o'za navini joriy etish" va "Ozuqabopligi va texnologik hosildorligi yuqori va tuproqning fitomeliorativ holatiga ta'sir qiluvchi jo'xorining yangi navlarini Buxoro viloyati tuproqlariga joriy etish", Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan esa "Sirdaryo viloyatining suv toshqinidan zarar ko'rgan tuproqlarning unumdorligini qayta tiklashda yangi tarkibli mikroblar konsortsiyalar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqarish" mavzularida bugungi kunning dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalar ishlab chiqildi va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim qilindi.

Ushbu ilmiy loyihalar asosida respublikamizdagi mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda Sirdaryo viloyatida suv toshqini ta'sirida zarar ko'rgan tuproqlar unumdorligini tiklash, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish imkonini beruvchi innovatsion texnologiyalar ishlab chiqiladi va suv toshqini ta'sirida zarar ko'rgan dala maydonlarida qo'llaniladi.